



TALABALARDA RAQAMLI SAVODXONLIK VA TIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Komilova Zulxumor

Farg'ona davlat universiteti

xumor851@mail.ru

Nematova Mohinur

FarDU talabasi

Annotatsiya: *XXI asrda bo'lajak mutaxassislardan talab qilinadigan professional va sifatli ta'lim ularda raqamli savodxonlik shu bilan birga til kompetensiyalarini to'liq shakllanishini talab qiladi. Ushbu maqola orqali esa raqamli savodxonlik va til bilish darajalarining qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli savodxonlik, til kompetensiyalari, axborot-kommunikativlik, konstruksiyalash, faollik, interfaol.*

Аннотация: *Профессиональное и качественное образование, необходимое будущим специалистам XXI века, требует полноценного формирования цифровой грамотности и языковых компетенций. В данной статье раскрывается важность цифровой грамотности и владения языком.*

Ключевые слова: *цифровая грамотность, языковые компетенции, информация и коммуникация, конструирование, активность, интерактивный.*

Abstract: *In the 21st century, the professional and high-quality education required of future specialists demands the development of both digital literacy and fully formed language competencies. This article reveals the significance of media literacy and language proficiency levels in the modern educational process.*

Keywords: *digital literacy, language competencies, information and communication skills, construction, active, interactive.*

Bugungi rivojlanayotgan jamiyatimizda raqamli texnologiyalardan foydalanmay turib ta'lim olishda yoki ta'lim berishda anchagina ortda qolish turgan gap. Yosh kadrlar faqat bu soha bo'yicha bilimga ega bo'lishi bilan kifoyalanmay, balki raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lgan xorijiy tillarni ham mukammal darajada o'rganishi talab etiladi.

Darhaqiqat, ayni paytda ta'lim sohasida yuz berayotgan rivojlanishlar yosh iqtidorlarni yetuk kadr bo'lib chiqishida muhim ro'l o'ynaydi. Xususan, ularda raqamli savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish ta'lim sohasida yuz berayotgan yangiliklar bilan hamnafas bo'lishdir. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079 sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan



mamlakatimizda zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim, ishlab chiqarish sohaslariga kirib borishi, kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni talab etmoqda. Ayni bu mamlakatimiz uchun rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish imkonini beradi.

Bugungi kunda olimlar tomonidan “raqamli savodxonlik” atamasining ham ko’p ishlatilishini uchratishimiz mumkin. Tadqiqotlarda raqamli savodxonlik – shaxsning komil sifatlari (bilim, aql, motivatsiya, mas’uliyat, tarbiya)ga asoslangan holda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini hayotning turli jabhalarida o’ziga ishonch bilan tez va xavfsiz qo’llay olish ko’nikmasi sifatida qaraladi. Ya’ni bu nafaqat axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlay olish darajasi balki axborotlarni to’g’ri tahlil etish, ularni ajratish, munosabat bildirish va boshqalarga to’g’ri yetkaza olish xizmati hamdir deb ta’riflanadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli savodxonlik – zamonaviy dunyoda hayot uchun raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar to’plamidir. Dinamik onlayn rejimlarni yaratish, saqlash, yirik va murakkab bo’lgan onlayn ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish qobiliyati hisoblanadi. Raqamli savodxonlik ma’lumotlarni mazmuni va ularning ta’sirini tushinish, ularni saralash, ularda keltirilgan hissiy va asoslangan axborotlarni ajrata olish, ma’lumotlar haqida tanqidiy mulohaza yuritish, jarayonlarni farqlash xususiyatlariga ega.

Raqamli kompetensiya – bu raqamli ko’nikmalarni muayyan kontekstda ishonchli, tanqidiy aks ettirish va mas’uliyat bilan qo’llash qobiliyatidir.

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo’llash sharoitida o’qitishning faol va interfaol shakl va unsurlarni ro’li yanada ortadi. Raqamlashtirish jarayoni o’quv faoliyatini tashkil etish uchun sifat jihatdan yangi imkoniyatlarni ochib beradi, shuningdek, tubdan yangi ta’lim ehtiyojlarini shakllantiradi. Bunday sharoitda uning didaktik salohiyati jihatdan turli texnologiyalar hamda o’qitish metodlarining farqlanishi yanada ortib boradi. Ma’ruza mashg’uloti kabi uzoq muddatli, faoliyati tuzilishiga ko’ra bir xil bo’lgan o’quv-tarbiyaviy ishlarning “passiv” shakllarining roli sezilarli darajada kamaydi. Aksincha, talabalarning o’z faoliyati, jamoaviy ish, interfaol muloqot, guruh va individual aks ettirish, murakkab tuzilishga ega bo’lgan va talabalarning loyiha faoliyati kabi ma’lum bir ichki ssenariyga asoslangan pedagogik texnologiyalarning roli, barcha muqobil variantlarda, o’yinni o’rganish texnologiyalari, guruh bahslari va munozaralar, ishni hal qilish va boshqalar ortib bormoqda. Ushbu texnologiyalarning barchasi talabaga raqamli jamiyatda zarur bo’lgan ijtimoiy vakolatlar majmuini shakllantirishga imkon beradi.

Raqamli kompetensiya – raqamli texnologiyalardan effektiv foydalanish bilimi va ko’nikmasi. O’z ichiga ma’lumot izlash, raqamli vositalardan foydalanish, ijtimoiy tarmoq imkoniyatlarini bilish, moliyaviy o’tkazmalar, onlayn o’qiy olish va shu kabi ko’nikmalar jamlanmasini oladi. Oliy Ta’lim Tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarda raqamli savodxonlikni rivojlantirish ularning kelgusidagi ish o’rni aniq



ekanligini, bir-biri bilan raqobatbardosh bo'la olishini va ana shu raqobatda eng kuchli mutaxassis bo'lib yetishib chiqishini yaqqol namoyon qiladi. Talabalarning raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish o'z mutaxassisligiga tegishli yangi axborotlarni tezkor izlab topish va ishlov berish, ularda axborot – kommunikativlik, loyihalash, konstruksiyalash, boshqaruv, tadqiqotchilik kabi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, o'z-o'zini faollashtirish, o'z-o'zini boshqarish va baholash, butun hayoti davomida ta'lim olishga qaratilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali ularda mustaqil ta'lim olish, xorijiy tillarni o'zlashtirish, faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va jamoaviy ishlash, doimiy ravishda yangi g'oya kabi afzalliklarni taqdim etadi.

Yuqorida ta'kidlangandek, talabalarda raqamli savodxonlikni rivojlantirmay turib eng zo'r kadr bo'lishning ilojisi yo'q. Ammo raqamli savodxonlikni o'zida yuksaltirishni xohlagan yosh iqtidorlar til kompetensiyalarini ham o'stirib borishlari zarur. O'z-o'zidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish xorijiy tillarni bilishni taqazo etadi. Sababi shundaki, ta'lim sohasida hatto kundalik hayotimizda foydalanilayotgan oddiy texnologiyalar tilining ko'p miqdori ingliz, rus yoki boshqa tillardaligi.

Talabalarda til bilish salohiyatini oshirish nafaqat raqamli texnologiyalarni tushinish, balki tashqi dunyo bilan muloqot qilish, yangilik olib kirish, fikr almashish yoinki barcha sohalarida o'z kuchini ko'rsatmay qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda raqamli savodxonlikni oshirish ularning kelajakdagi ish o'mi aniq ekanligini ta'minlaydi, sababi shuki, hozirgi kunda ko'plab narsalar raqamlashtirish tizimiga o'tgan bo'lsa, kelajakda hech bir narsa raqamlashtirish tizimisiz amalga oshmaydi. Shu bilan birga raqamlashtirish tizimi bilan bevosita bog'liq bo'lgan til kompetensiyalarini ham bilish raqamli texnologiyalarni tilini tushunish uchun eng qulay yo'l desak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" PF- 6079 sonli farmoni

2. Abduqodir A.A., Paradev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. "Fan" nashriyoti, Toshkent, 2009. – 145b. Tojiboyev, I., & Karimova, N. (2022). Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning metodik asoslari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali*, 4(3), 87–95.

3. Qodirova, M. (2021). O'zbekistonda raqamli ta'limni joriy etishning tashkiliy-pedagogik asoslari. *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2(1), 56–63.

4. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023). Some approaches to teaching programming languages in professional educational institutions. *Education and science in the XXI century*. 2 (38).



5. Tojiboev I.T., Komilova Z.X. (2023) The role of information technologies in teaching technical sciences in professional educational institutions. Scientific and practical journal "Technique". Issue No.1.
6. Komilova, Z. Kh. (2023). The role and importance of information technology science in today's society. Education and innovative research. Bukhara State University, 2(2), 234-237.
7. Komilova Z.Kh, Nazirjonova. F.S The role of new information technologies in education. Экономика и социум. 2021, № 4-1 (83), -С.167-170.
8. Z. X. Komilova. Axborot texnologiyalari fanining hozirgi jamiyatdagi o'rni va ahamiyati //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. Buxoro davlat universiteti. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 234-237.
9. Z. X. Komilova & F. S. Nazirjonova. (2020). The value and role of interactive methods in the development of information technology in primary school pupil. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Reviewed International Journal). ISSN, 2249-7137.